

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



“HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI”

fanining o‘quv dasturi

(1-kypc)

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

Termiz – 2024

Fan/modul kodi HO'AT2-311	O'quv yili 2024-2025	Semestr II	ECTS - Kredittlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili o'zbek		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Hozirgi o'zbek adabiy tili	84	96	180

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak filolog mutaxassislariga hozirgi o'zbek tilining lisoniy qurilishi va imkoniyatlari hamda ularning nutqiy qo'llanilishi masalalari bo'yicha ilmiy-nazariy ma'lumot berishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarni o'zbek tilshunosligining fonetika, fonologiya, grafika, orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya va sintaksis bo'limlari bilan tanishtirish, bu sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, bilimlar sirasi, -ulardagi munozarali holatlar, g'oyalar va qarashlar, asosiy tushuncha va atamalar xususida ma'lumot berishdan iborat bo'lib, hozirgi o'zbek tili nazariyasi va amaliyotiga oid bilimlar bilan qurollantirish, ta'lim oluvchilarda qayd etilgan masalalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

II SEMESTR (Ma'ruza)

1-ma'ruza. Kirish. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining maqsad va vazifalari

O'zbek tili va uning shakllanish tarixi. O'zbek adabiy tili taraqqiyotini davrlashtirish. Hozirgi o'zbek adabiy tili va uning shevalarga munosabati. Hozirgi o'zbek adabiy tilining o'rganilish tarixi va bosqichlari. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining maqsad va vazifalari. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining bo'limlari.

2-ma'ruza. Til, lison va nutq munosabati. Lisoniy paradigma

Til, lison va nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Ilmiy bilish va uning bosqichlari. Falsafiy UMIS va AHVOning lisoniy tizimda voqelanishi. Lisoniy va nutqiy birliklar. Lisoniy paradigma va uning turlari.

3-ma'ruza. Hozirgi o'zbek tilining fonetik sathi

O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi tushunchalari. Empirik soha sifatidagi fonetika nazariy soha sifatidagi fonologiyaning asosi ekanligi. Fonetikaning turlari, ularning maqsad va vazifalari. Nutq tovushlari fonetik birliklar sifatida. Nutq tovushining turlari, xususiyatlari. O'zbek nutq tovushlarining fizik-akustik aspekti. Nutq tovushining akustik belgilari. O'zbek nutq tovushlarining anatomik-fiziologik aspekti.

4-ma'ruza. Hozirgi o'zbek adabiy tili fonologiyasi

O'zbek tili fonologiyasi va uning asosiy birligi. Fonema va tovush munosabati, unda lison va nutq munosabatining aks etishi. Fonemaning turlari. Unli fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, unli fonemalarni tasniflash asoslari. Undosh fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, undosh fonemalarni tasniflash asoslari. Fonemalararo lisoniy ziddiyatlamning voqelanishi. O'zbek tili fonemalari. lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi. Fonemalarning nutqiy voqelanishiga ta'sir qiluvchi lisoniy omillar: yondosh tovushlar, urg'u, bo'g'in, ohang va b.

5-ma'ruza. Hozirgi o'zbek tilining leksik sathi va leksikologiyasi

Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi. Leksema leksik sath birligi sifatida. Leksema va so'z, ularning xususiyatlari. Leksema va so'zda lison va nutq munosabatining aks etishi. Leksema nom va ma'no munosabati. Leksemaning tuzilishi, tub'yalanganligi, ma'no ko'lami, genezisi, qo'llanishi va boshqa belgilariga ko'ra turlari, munosabatlari.

6-ma'ruza. Semema va uning tarkibiy qismlari

Semema va nutqiy ma'no, ularning turlari va xususiyatlari, uzual va okkazonal ma'no. Sema va uning xususiyatlari, semaning turlari. Leksemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (morfologik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar) omillar hamkorligi. So'zning ma'noviy taraqqiyoti. Leksema ma'nosining torayishi va kengayishi. Hosila ma'no vujudga kelish yo'llari va usullari: metafora va vazifadoshlik, metonimiya va sinekdoxa.

7-ma'ruza. Leksemaning semantik ko'lami. O'zbek tilida leksik-semantik munosabatlar

Leksik ma'no. Leksik ma'no va tushuncha. Leksik ma'noning tarkibi. Semema. Sema va uning turlari. Semik tahlil. Leksik ma'noning turlari. O'zbek

tilida leksik-semantik sistemalar. Leksema – shakl va ma'no unsuridan iborat sistema sifatida. Lug'aviy qator. Lug'aviy mikrosistema. Lug'aviy-ma'noviy guruh. Lug'aviy-mavzuviy guruh. Lug'aviy-mavzuviy to'lda. Lug'aviy-mazmuniy maydon.

O'zbek tilida paradigmatik munosabatlar. Sinonimiya. Sinonimik qator. Dominanta. Lisoniy sinonimlar, nutqiy sinonimlar. Sinonimik darajalanish (graduonimiya). Lug'aviy sinonimlarning markaz va qurshov qatlami.

8-ma'ruza. O'zbek tili leksikasi tasnifi

Leksik ma'no taraqqiyotida nolisoniy omillar. Ijtimoiy o'zgarishlarning ma'no taraqqiyotiga ta'siri. Leksema ma'nosining torayishi va kengayishi. Ma'noning miqdoriy o'zgarishlari.

9-ma'ruza. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. O'zbek tili frazeologiyasi.

O'z qatlam. Sof o'zbekcha so'zlarning fonetik, morfemik tarkibi. O'zlashgan qatlam. Arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar. Tojik-fors tilidan o'zlashgan so'zlar. Chet tili-baymalmilal so'zlar. So'z o'zlashtirish. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. So'z o'zlashtirish.

Hosila ma'no vujudga kelish yo'llari va usullari: metafora va vazifadoshlik; metonimiya va sinekdoxa. Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari. Monosemiya va polisemiya. Polisemiyaning vujudga keltiruvchi omillar. Polisemiya turlari. O'zbek tili frazeologiyasi. Frazema. Frazeologik ma'no, uning turlari. Frazeologik-semantik munosabatlar. Perifraza. Perifrazalarning turlari, tarkibi, ustlubiy xususiyatlari. Frazeologizm. Frazeologizmining ma'nosi. Frazeologizm tarkibi. Frazeologizmlarda semantik munosabat. Frazeologik sinonimiya. Frazeologik antonimiya. Frazeologik omonimiya.

10-ma'ruza. O'zbek tili leksikografiyasi

O'zbek tilida leksik-semantik sistemalar. Leksikografiya. Lug'at turlari va tiplari. Lug'at maqolalarining joylashirilish tartibi va sxemasi. Alvabit va xraonologik tarzdagi lug'atlar va ularning aharniyati.

11-ma'ruza. O'zbek tili morfemikasi. O'zbek tili derivatsiyasi va so'z yasalishi.

Morfema, derivatsion va grammatik morfemalar, lug'aviy va sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar. Morfemalarda shakl va ma'no munosabatlari.

12-ma'ruza. Grammatik shakl, grammatik ma'no va grammatik kategoriya

Grammatikaning tarkibiy qismlari. Morfologiya, grammatik shakllangan so'z, shakllangan so'z, uning birligi sifatida. O'zbek tilida leksemani grammatik shakllantiruvchi vosita va uning turlari. Grammatik ma'no, uning turlari: morfologik va sintaktik ma'no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma'no, kategorial, yondosh va hamroh ma'no, ularning xususiyatlari va turlari. O'zbek tili grammatik kategoriyalari va ularning turlari, lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, Grammatik shakl lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

13-ma'ruza. Hozirgi o'zbek tilida so'z turkumlari.

O'zbek tilida so'z turkumlari. So'zlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari. Mustaqil so'z turkumlari, ularning o'rganilish tarixiga sharh. Mustaqil so'z turkumlarining xususiyatlari, tiplari, o'zgaruvchan va o'zgarmas turkumlar. G'ayrioddiy ma'noli turkumlar (olmosh, taqlid). Mustaqil so'z turkumlari tarkibi.

14-ma'ruza. Fe'l so'z turkumi. Fe'lning tasniflovchi va o'zgalovchi kategoriyalar

Fe'l. Fe'lning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy Grammatik xususiyatlari. Fe'lning lug'aviy Grammatik guruhlari. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'lning tuzilish turlari, to'liqsiz fe'llarning so'z turkumi sistemasidagi o'rni. Fe'lning tasniflovchi va o'zgalovchi kategoriyalar. Nisbat kategoriyasi va uning shakllari tizimi. Nisbat kategoriyasi va shakllarining umumiy Grammatik ma'nosi va substansial mohiyati sifatida. Nisbat kategoriyasi umumiy Grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Fe'lning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari: sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi. Fe'lning harakat tarzi kategoriyasi murakkab tarkibli kategoriya sifatida (ravishdosh-ko'makchi fe'l) harakat tarzi kategoriyasi shakli sifatida. Fe'lning nokategorial shakllari tizimi.

15-ma'ruza. Ot va sifat so'z turkumlari

Ot va uning o'rganilish tarixi. Otning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Otning umumiy grammatik ma'nosi. Otning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Otning tasniflovchi kategoriyasi. Son kategoriyasi va uning shakllari. Son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Son kategoriyasi

umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Otning nokategorial shakllari. Sifat va uning o'rganilish tarixi. Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhlari. Asliy va nisbiy sifatlari. Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida. Daraja kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarining uyg'unlashuvi. Sifatning nokategorial shakllari: kuchaytirma va ozaytirma shakllari.

16-ma'ruza. Son va ravish so'z turkumlari

Son va uning o'rganilish tarixi. Sonning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning lug'aviy-grammatik guruhlari va tasniflanishi. Son grammatik shakllarining lug'aviy ma'noga ta'sir qilish imkoniyatlari. Son shakllari umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarining uyg'unlashuvi. Numerativlar. Numerativli birliklarning qoliplari.

Ravish va uning o'rganilish tarixi. Ravishning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik ravishning grammatik belgisi sifatida. Ravishning lug'aviy-grammatik guruhlari.

17-ma'ruza. Taqlid so'zlar. Olmosh so'z turkumi

Taqlid va uning o'rganilish tarixi. Taqlidning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik taqlidning grammatik belgisi sifatida. Taqlidning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Olmosh va uning o'rganilish tarixi. Olmoshning o'ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. Olmoshning matndagi o'rmi. Sintaktik imkoniyatlari.

18-ma'ruza. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar

Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari: egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi. Ularning umumturkumiy va sintittik vazifa uchun xoslangan kategoriyalar ekanligi. Egalik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Egalik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosini. Egalik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Kelishik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Kelishik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosini. Kelishik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Kelishik kategoriyasi umumiy grammatik

ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Kesimlik murakkab tarkibli kategoriya sifatida. Kesimlik kategoriyasining tarkibi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, modallik kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi. Shaxs-son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Zamon kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Tasdiq-inkor kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Kesimlik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosini. Kesimlik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Kesimlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bog'lama.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

II semestr uchun:

1. Matnmi lisoniy va nutqiy birliklarga ajratish. Lisoniy munosabatlar va lisoniy ziddiyatlar bo'yicha mashqlar tahlili.
2. Fonemalarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari bo'yicha mashqlar tahlili.
3. So'z urg'usi va bo'g'in turlari bo'yicha mashqlar.
4. Fonetik tahlil.
5. Orfografiya va orfoepiya tamoyillari bo'yicha mashqlar tahlili.
6. Leksema va so'z munosabati bo'yicha mashqlar tahlili.
7. Semema va nutqiy ma'no, sema va uning turlari bo'yicha mashqlar.
8. So'z ma'no taraqqiyoti, hosila ma'noning vujudga kelish yo'llari va usullarini farqlash bo'yicha mashqlar tahlili.
9. Frazemalarning semantik tarkibiga ko'ra mashqlar tahlili. O'zbek tili leksikografiyasiga doir mashqlar.

10. Morfemik tahlilning o'ziga xos xususiyatlari.

11. So'z turkumlari yuzasidan tahlil qilish tamoyillari. Mustaqil so'z turkumlari asosida.

12. Yordamchi va oraliq so'z turkumlarining nutqdagi ahamiyati yuzasidan tahlil.

IV. SEMINAR MASHG'ULOTLAR bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

II semestr uchun:

1. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari, manbalari va dialektal tarkibi.

2. O'zbek tilshunosligi taraqqiyoti va unda yangi lingvistik paradigmalari.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tilida lison, nutq, me'yor munosabati. Lisoniy va nutqiy birliklar.
4. Lisoniy ziddiyatlar. Lisoniy tasnif va uning turlari.
5. Fonetika va fonologiya. Fonema va tovushning dialektal munosabati.
6. O'zbek tilining yozuv tizimlari taraqqiyoti. O'zbek tili orfoografiyasining asosiy prinsiplari.
7. Leksemaning semantik strukturasi. Semema va sema munosabati. Sema turlari. Monosemiya va polisemiya.
8. Leksik semantik sistemalar lug'aviy-ma'noviy guruh, lug'aviy-mazmuniy to'da, lug'aviy-mazmuniy maydon.
9. O'zbek tilidagi leksemalarning shakl va ma'no munosabatlari: omonimiya, sinonimiya, antonimiya.
10. Morfema uning turlari, lisoniy xususiyatlari, va nutqiy voqelanishi
11. O'zbek tili derivatsiyasi va so'z yasalishi. Grammatik shakl, grammatik ma'no va grammatik kategoriya, o'zbek tilida so'z turkumlari. Mustaqil so'z turkumlari.
12. Hozirgi o'zbek tilida so'z turkumlari.

V. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.
2. O'zbek tilshunosligida yangi lingvistik paradigmalari.
3. Hozirgi o'zbek tilida lison, nutq, me'yor munosabati.
4. O'zbek tilida lisoniy munosabatlar va uning turlari.
5. Lisoniy ziddiyatlar. Lisoniy tasnif va uning turlari.
6. Fonema tovushning dialektal munosabati
7. Leksema va so'z munosabati.
8. Leksemalarning shakl va ma'no munosabati
9. O'zbek tili frazeologiyasi
10. O'zlashma va olimma so'zlarning o'zbek tilidagi o'rni.
11. O'zbek tili leksikografiyasining taraqqiyot bosqichlari.
12. O'zbek tili leksikasi tasnifi
13. Elektron lug'atlarda leksemaning sememik maydoni.
14. Matni lisoniy va nutqiy birliklarga ajratish
15. Kompleks fonetik-orfoepik-orfografik tahlil

16. So'z urg'usi va bo'g'in turlari
17. Fonetik tahlil
18. Orfografiya va orfoepiya tamoyillari bo'yicha izlanishlar olib borish.
19. UMIS va AHVO munosabati
20. Matnlardan leksik ziddiyatlarga misollar izlash
21. Semema va nutqiy ma'no, sema va uning turlari.
22. Lisoniy munosabat va lisoniy ziddiyat
23. So'z ma'nosi taraqqiyoti, hosila ma'noning vujudga kelish yo'llari.
24. Leksemalarning shakl va ma'no munosabati
25. Leksemalarning tasnifi
26. Frazeologik tahlil.
27. Kompleks leksik tahlil.
28. So'z yasalishining davriy taraqqiyoti va tilshunoslar qarashi.
29. O'zbek xalq maqollarining leksik-semantik sinonimiyasi.
30. Hozirgi o'zbek adabiy tilida shevalarning qo'llanishi.
31. Hozirgi o'zbek adabiy tili adabiyotlarining tahlili.
32. Adabiy tilda muqobili bo'lmagan leksikalar.
33. Dialoglarda iboralarning qo'llanilishi va uning leksik tahlili.
34. Leksik sinonimiya va frazeologik sinonimiyaning o'zaro taqqosi.
35. Uydosh so'zlar va ularning leksik xususiyati
36. Qo'llanish doirasi chegaralangan leksika
37. Qo'llanish davri chegaralangan leksika
38. Oila a'zolari nutqida qo'llanadigan o'ziga xos so'zlar tasnifi
39. Morfema uning turlari, lisoniy xususiyatlari, va nutqiy voqelanishi
40. O'zbek tili derivatsiyasi va so'z yasalishi. Grammatik shakl, grammatik ma'no va grammatik kategoriya, o'zbek tilida so'z turkumlari. Mustaqil so'z turkumlari.
41. Hozirgi o'zbek tilida so'z turkumlari.
42. Fe'l va uning grammatik xususiyatlari. Fe'l va uning tasniflovchi kategoriyalari
43. Ot, sifat va ularning grammatik xususiyatlari hamda tasniflovchi kategoriyalari
44. Son, ravish va ularning grammatik xususiyatlari hamda tasniflovchi kategoriyalari
45. O'zbek tilida sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar
46. Yordamchi so'zlar: tizimi, turlari va substansial-grammatik xususiyatlari. Bog'lovchi, yuklama, ko'makchi va ularning turlari.
47. So'zlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari.
48. Mustaqil so'z turkumlari, ularning o'rganilish tarixiga sharh.

**VI. Kreditlarni olish uchun talablar
(Requirements for obtaining loans):**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, *yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma* ishini topshirish.

**VII. Talabalar bilimni kredit-baholash tizimi asosida nazorat qilish
jadvali va baholash mezonlari (Assessments)**

“Hozirgi o'zbek adabiy tili” faniga ta'lim yo'nalishida 36 soat ma'ruza, 24 soat amaliy, 24 soat seminar va 96 soat mustaqil ta'lim ajratilgan. Universitet nizomi bo'yicha bu 180 soat yuklama hajmiga 6 kredit beriladi. Hemi dasturidagi kredit baholash tizimidagi 100 ball, o'zlashtirish chegarasi esa 60 foizdir. Joriy va oraliq nazoratda talaba jami 50 ball to'plashi mumkin. Talaba yakuniy nazoratda esa 50 ball to'playdi.

VIII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- hozirgi o'zbek tilining shakllanishi, fonologik, leksik, frazeologik, morfologik va sintaktik sath birliklari, ularning xususiyatlari, bu sohadagi dolzarb muammolar haqida *bilinga*;
- til birliklarini fonologik, leksik, frazeologik, morfemik, so'z yasalishi, morfologik va sintaktik jihatdan tahlil qila olish *ko'nikmalariga*;
- hozirgi o'zbek adabiy tili sathlari va ularning birliklarini farqlash, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi lisoniy birliklar, munosabatlarni ilmiy asoslarini bilish *kasbiy kompetensiyasiga* ega bo'ladi.

IX. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- binar ma'ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
- lingvistik tahlillar;
- loyihalar;
- interfaol keys-stadilar;
- blis-so'rov;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5.	<p>X. Talabalar kreditlarni olish tartibi</p> <p>I-izoh: O'ROO'MTVning 2018-yil 9-avgustdagi 19/2018-son buyrug'i (OTM talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizom) 1-jadvali (baholashni "5" baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o'tkazish jadvali) 2-jadval (Oliy ta'lim talabalar o'zlashtirishini baholash tizimlarini qiyosiy taqqoslash jadvali O'zbekiston tizimi) asosan konvertasiya qilinadi.</p> <p>2-izoh: VMning 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli (OTM ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bogliq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida) qarori 1-ilovasi (OTM o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida nizom) ning 1-bob 1-4 bandi, 4-bob 11-14 bandi, 6-bob 29-30-31 bandi, 8-bob 41 bandiga muvofiq kredit beriladi.</p> <p>Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.</p> <p>Oraliq nazorat: o'tilgan mavzular asosida og'zaki yoki yozma shaklda o'tkaziladi.</p> <p>Yakuniy nazorat: semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma shaklda o'tkaziladi.</p> <p>XI. Talabalar bilimni baholash mezonlari:</p> <p>5 (a'lo) baho berilgan adabiyotlar ustida ishlaydi, o'quv adabiyotlaridagi nazariy ma'lumotlarni qiyoslab tahlil qila oladi, mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, fanning mohiyatini tushumadi, biladi, aytib bera oladi, topshiriqlarni to'g'ri va to'liq o'z vaqtida bajaradi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, lingvistik tahlillarni bajara oladi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p>4 (yaxshi) baho berilgan adabiyotlar ustida ishlaydi, mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, fanning mohiyatini tushumadi, biladi, aytib bera oladi, topshiriqlarni to'g'ri bajaradi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, lingvistik tahlillarni bajara oladi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p>3 (qoniqarli) baho asosiy adabiyotlar ustida ishlaydi, fanning mohiyatini tushumadi, ifodalay oladi, topshiriqlarni bajaradi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, lingvistik tahlillarni bajara oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;</p> <p>2 (qoniqarsiz) baho talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda qo'yiladi.</p>
6.	<p>XII. Asosiy adabiyotlar:</p>

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zME, 2013.
 2. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
 3. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili (Kirish). Fonetik sath. Leksik-semantik sath). Darslik. Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018.
 4. Lutfullayeva D., Davlatova R., Saparniyazova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – 280 b.
 5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
- Qo'shimcha adabiyotlar:**
1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
 2. Абдуазизов А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
 3. Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2009.
 4. Жамолхонов Х, Сапаев Қ. Имло муаммолари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2007.
 5. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
 6. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. Монография. – Тошкент, Фан, 2013
 7. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Монография. – Тошкент, Mumtoz so'z, 2010
 8. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
 9. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996
 10. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.
 11. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.
 12. Хақимова М. Семасиология. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2008.

Internet saytlari

	http://www.zivonet.uz https://www.langust.ru https://qomus-info http://www.literature.uz http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html
7.	Fan dasturi Universitet Kengashning 2024-yil _____ - _____ dagi _____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Sh.Bobomurodova – “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası mudiri, dotsent. Sh.Xabibullayeva – “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi
9.	Taqrizchilar: D. Lutfullayeva – O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti yetakchi ilmiy xodimi, f.f.d., prof. N.Musulmonova – ToshDO‘TAU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası dotsenti, f.f.n.